

**TEMIR YO‘L ORQALI YO‘LOVCHI TASHISHNI TAKOMILLASHTIRISH
TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH**

Butunov Dilmurod Baxodirovich

Toshkent davlat transport universiteti professori, (PhD) professor

dilmurodpgups@mail.ru

Abduqodirov Sardor Asqar o‘g‘li

Toshkent davlat transport universiteti dotsenti, (PhD) dotsent

sabduqodirov588@gmail.com

Daminov Shahriyor Asomiddin o‘g‘li

Toshkent davlat transport universiteti, tayanch doktoranti

daminovshakhriyor@gmail.com

Kengesbaeva Dinara Jengisbay qizi

Toshkent davlat transport universiteti talabasi

dinarakengesbaeva06@gmail.com

ANNOTATION: In addition to being safer and more reliable than other modes of transport, rail transport is also an environmentally friendly mode of transport, which is also shows how important this mode of transport. High-speed train services are mainly organized from Tashkent to regions with attractive tourist destinations in our country. At the same time, the use of these trains is increasing year by year. This has significantly increased the share of rail transport in passenger transportation logistics.

KEYWORDS: Afrosiyob, passenger train, traffic safety, wagon, locomotive, transport, route.

ANNOTATSIYA: Temir yo‘l transporti boshqa transport turlariga nisbatan xavfsizligi va ishonchliligi bilan ajralib turishidan tashqari ekologik toza transport turi ekanligi ham ushbu transport turini naqadar muhim ahamiyat kasb etishini anglatadi. Tezyurar poyezdlar harakatini tashkil etish orqali mamlakatimizda mahalliy aholi jumladan, boshqa davlatlardan tashrif buyuruvchi sayyohlar uchun ham qulay va xavfsiz transport sifatida xizmat qilib kelmoqda. Yuqori tezlikdagi poyezdlar harakati asosan Toshkent shahridan yurtimizdagi diqqatga sazovor turizm maskanlari mavjud bo‘lgan hudularga tomon tashkil etilgan. Shu bilan birgalikda ushbu poyezdlardan foydalanish ko‘rsatkichlari yildan-yilga o‘smoqda. Bu orqali temir yo‘l transportining yo‘lovchi tashish logistikasidagi ulushi sezilarli darajada ortdi.

KALIT SO‘ZLAR: Afrosiyob, yo‘lovchi poyezdi, harakat xavfsizligi, vagon, lokomotiv, transport, marshrut.

KIRISH

O‘zbekiston iqtisodiy rivojlanishining zamonaviy bosqichi transport tizimining, ayniqsa temir yo‘l orqali yo‘lovchi tashish sohasining samaradorligi va ishonchlilgisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Aholi va tovarlarning harakatlanishga bo‘lgan ehtiyoji shu qadar yuqoriki, barqaror va yaxshi tashkil etilgan transport tizimisiz ushbu ehtiyojni qondirish mushkul bo‘ladi. Temir yo‘l transportining yagona tizimi O‘zbekiston hududiy yaxlitligini mustahkamlab, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning muhim omillaridan biri sifatida xizmat qiladi. Respublikada 36 milliondan ortiq aholi istiqomat qiladi va ularning mobilligi, iqtisodiy imkoniyatlari va mehnat

migratsiyasini ta'minlash uchun temir yo'l transporti asosiy rol o'ynaydi. O'zbekiston Respublikasida temir yo'l transporti davlat tomonidan strategik darajada boshqariladi. "O'zbekiston Temir Yo'llari" AJ barcha yo'lovchi va yuk tashish faoliyatini markazlashtirilgan holda tashkil etib, samaradorlikni oshirish, xizmat sifatini yaxshilash va transport xavfsizligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratadi. Temir yo'l transportida yo'lovchilarni tashish, umumiy tashishlar jarayoning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi va umumiy tashishlar xajmining 40-60% tashkil etadi. Yo'lovchi tashishning asosiy vazifalari aholining harakatga bo'lgan ehtiyojini qondirish, temir yo'l vokzallarida yo'lovchilarga madaniy xizmat ko'rsatishni tashkil etish, poyezdlarda ular uchun zarur qulayliklar yaratishdan iborat.

NATIJA VA MUHOKAMA

Yo'lovchilarni tashish talablari quyidagicha: Ichimlik suvi va oziq-ovqat xavfsizligi, nogironlarni tashish uchun vagonlarni jihozlash, yo'lovchi vagonlari jihozlarining xavfsizligi, poyezdlarni tibbiy yordam ko'rsatish vositalari bilan to'ldirish, yong'in xavfsizligi, yo'lovchilarni joylariga joylashtirishga yordam berish, choyshablar, choy mahsulotlari va choy buyumlari bilan ta'minlash, restoran vagonlarida xizmat ko'rsatish, xodimlarning shaxsiy gigienasi talablari, xodimlarni tashishda avariya-qutqaruv ishlariga tayyorligi, harakat tezliklarini oshirish, poyezdlarning turish vaqtlarini qisqartirish, yo'lovchilarni yo'lda yurishiga ketadigan vaqtlarini kamaytirish, vokzallarda hamda yo'lda poyezdlarda yo'lovchilarga servis xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash, harakat tarkiblaridan, stansiya hamda vokzal qurilmalaridan samarali foydalanish, yo'lovchi tashish harakatlarini to'g'ri taqsimlash lozim, yo'lovchilar tashish harakatlarini maxsus yuqori tezlik magistrallarida tashkil etish, barcha turdagi transport vositalari ishini bir-biri bilan kelishilgan holda tashkil etish, yo'lovchilar tashish jarayonidagi barcha bo'g'inlarning texnik vositalari va ish texnologiyalarini doimiy tarzda takomillashtirib borish lozim [1-5, 7, 8].

Yo'lovchi tashish tizimini takomillashtirish zarurati quyidagicha mamlakatimizda transport sohasining rivojlanishi avvalo iqtisodiy faollik va aholining transport xizmatlariga bo'lgan talabining ortishi bilan bog'liq [7-10]. Biroq transport tizimi faqat biznes manfaati bilan emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarni qondirish nuqtai nazaridan ham rivojlanishi kerak [2, 4].

Yo'lovchi uchun transport turi tanlovida quyidagilar muhim ahamiyatga ega:

- Harakatlanish tezligi va qulayligi.
- Xavfsizlik darajasi.
- Narx va xizmat sifati o'rtasidagi muvozanat.
- Regulyarlik va qatnov vaqtining aniqligi.
- Temir yo'l yo'lovchi tashish tizimining o'ziga xos xususiyatlari.

Temir yo'l transporti o'ziga xos xususiyatlarga ega, bular:


- Hududiy qamrov va yirik sig'im: uzoq masofalarga katta hajmda yo'lovchi tashish imkoniyati;
- Iqlimga kam ta'sirchanlik: havo sharoitidan kamroq bog'liqlik;
- Barqarorlik va ekologik tozaligi: boshqa transport turlariga nisbatan atrof-muhitga kamroq zarar yetkazadi.

1-jadval


Yuqori tezlikdagi yo'lovchi poyezdlar harakatini tashkil etishda stiqbolli rejalar

Ko'rsatkichlar	Ma'lumotlar
Temir yo'l uzunligi	4.700 km
Yillik yo'lovchi tashish hajmi	25 milliard yo'lovchi

Yuqori tezlikdagi yo‘lovchi poyezdlari soni	8ta (Afrosiyob poyezdlari)
2025-yilgacha rejadagi investitsiyalar	2 milliard AQSH dollari



1-rasm. “O‘ztemiryo‘lvo‘lovchi” AJ faoliyati “Yo‘lovchilar aylanmasi” ko‘rsatkichining 2019-2022-yillar kesimida bajarilish dinamikasi



2-rasm. Yo‘lovchi tashish hajmining yillik o‘sishi (2018–2024)

Yo‘lovchi tashishni takomillashtirish yo‘nalishlari:

- Poyezdlar harakat jadvalini optimallashtirish: qatnovlar sonini va marshrut tarmog‘ini aholi talabiga ko‘ra moslashtirish;
- Yuqori tezlikdagi poyezdlar sonini ko‘paytirish: Afrosiyob tipidagi poyezdlar marshrutlarini kengaytirish;

- Yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish: elektron chiptalar, qulay kutish sharoitlari, poyezd ichidagi xizmatlarni rivojlantirish;
- Xavfsizlik va ekologik tozalikni oshirish: zamonaviy lokomotivlar va vagonlardan foydalanish.



3-rasm. “O‘ztemiryo‘lyo‘lovchi” AJda yo‘lovchilar tashishni rivojlantirishning istiqbollari

O‘zbekistonda iqtisodiyotining rivojlanishi uchun “O‘ztemiryo‘lyo‘lovchi” AJ keng ko‘lamli loyihalar ishlanmoqda. Bunga Salar-Chirchiq va Toshkent-Samarqand yangi tezyurar temir yo‘li qurilish loyihalari misol bo‘la oladi.

Salar-Chirchiq uchastkasida tezyurar poyezdlarni ishga tushirish imkoniyatlarini yaratish:

Loyihaning qisqacha tavsifi: Toshkent-Xodjickent temir yo‘l yo‘lini 2 bosqichda rekonstruksiya qilish va shahar atrofi temir yo‘l yo‘lini yagona xizmat ko‘rsatish standartlari va chipta menyusi bilan shahar transporti tizimiga integratsiya qilgan holda tezkor shahar atrofi yo‘nalishini ishga tushirish.

Kutilayotgan natijalar:

- Aholining transport xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish, ularning harakatchanligini oshirish;
- Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini rivojlantirish;
- Ichki turizmni rivojlantirish.

2-jadval

Shahar atrofidagi transportni shahar transport tizimiga integratsiya qilish

Qurilish muddati	Loyiha byujetini hisoblash
------------------	----------------------------

84 oy	Temir yo‘llarni rekonstruksiya qilish – 40.78 mln AQSH dollari Elektr poyezdlarini xarid qilish-33.464 mln AQSH dollari
-------	--



4-rasm. Tezyurar yo‘lovchi poyezdlari uchun ixtisoslashtirilgan stansiya

Loyihaning qisqacha tavsifi, Toshkent-Samarqand uchastkasida ikkita konstruksiya varianti taklif etiladigan alohida tezyurar temir yo‘l liniyasi qurilishi:

1. Estakadali
2. Yarim estakadali

Kutilayotgan natijalar

- Yo‘lovchilar tashish hajmining oshishi;
- Sayohat vaqtini qisqartirish;
- Yuk poyezdlari uchun umumiy foydalaniladigan temir yo‘llarni bo‘shatish;

Respublikaning turizm salohiyatini rivojlantirish.


3-jadval

Yuqori tezlikdagi poyezdlar harakatini tashkil etish loyihasi

Qurilish davomiyligi	Loyiha byujetini hisoblash
42 oy	Estakada - 4234 mln AQSH dollari Yarim estakada - 2574 mln AQSH dollari




5-rasm. Toshkent-Samarqand-Toshkent yoʻnalishida harakatlanadigan Afrosiyob poyezdi



6-rasm. Afrosiyob tezyurar poyezdi harakatlanish yoʻnalishi (Toshkent-Samarqand-Toshkent)

Yoʻlovchi tashishni rejalashtirishda aholining daromadlari, raqobatchilardan tariflar, mamlakatdagi sanatoriya-kurort bazasining holati, yoʻlovchi tashish sifatini oshirish, xizmatni rivojlantirish va yangi turdagi xizmatlarni joriy etish boʻyicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning oqibatlarini hisobga olinadi.

Transport turlari kesimida ulardan foydalangan yo'lovchilar ulushi



■ Temir yo'l transporti ■ Havo transporti ■ Avtomobil transporti
 ■ Suv transporti ■ Boshqa

7-rasm. Transport turlarining solishtirma ko'rsatkichlari



Temir yo'l transporti – 39%, havo transporti – 27%, avtomobil transporti – 13% ,suv transporti – 15%, boshqa – 6% ekanligi aniqlandi.

4-jadval

Transport turlarining solishtirma ko'rsatkichlari

Transport turi	Tezlik	Narx	Qulaylik	Xavfsizlik	Moslashuvchanlik
Avtomobil	O'rtacha	Arzon-o'rta	O'rtacha yuqori	O'rtacha	Yuqori
Temir yo'l	O'rtacha yuqori	O'rta	Yuqori	Yuqori	O'rtacha
Havo	Juda yuqori	Qimmat	Yuqori	Juda yuqori	Past
Suv	O'rtacha	O'rtacha	Yuqori	Yuqori	Juda past

Yo'lovchilar uchun transport xizmatining eng muhim sifat xususiyatlari



8-rasm. Temir yo'l transportining boshqa transport turlari bilan solishtirma ko'rsatkichi

Tezlik – 17%, qulaylik – 23%, hujjatlarni rasmiylashtirish davomiyligi – 22%, xizmatlar hajmi – 11%, chipta narxi – 4%, jo'natish chastotasi – 5%, o'z vaqtida jo'nash va yetib kelish – 18% ni tashkil etdi.

XULOSA

Temir yo'l transportida yo'lovchi poyezdlar harakatini samarali tashkil etish orqali aholining transport vositalariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish "O'TY" AJ ning ustuvor vazifasi hisoblanadi. Jumladan, yuqori tezlikdagi "Afrosiyob" yo'lovchi poyezdlari Toshkent-Samarqand-Toshkent yo'nalishida uzoq yillardan buyon Respublikamizning turizm salohiyatini oshirish yo'lida xizmat qilib kelmoqda. Bunda yo'lovchi poyezdlari yo'lovchi tashishda boshqa turdagi transport turlaridan ko'plab parametrlarda ustun ekanligi aniqlandi. Shu bilan birgalikda temir yo'l transporti orqali yo'lovchi tashi ko'rsatkichlar yildan-yilga ortib bormoqda. Bu o'z navbatida boshqa turdagi transport turlari bilan sog'lom raqobat muhitini yaratadi. Natijada aholining transport turlariga bo'lgan ehtiyoji samarali qondiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 2025-2027 yillarda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori <https://www.lex.uz/docs/7278617>

2. Butunov, Dilmurod Baxodirovich, Shukurov, Murodulla Sulaymon O'g'li, Pardayeva, Umida Norbayevna, Bo'riyev, Shuxrat Xamroqul O'g'li yo'lovchilarga chipta sotish jarayonini takomillashtirish // orienss. 2022. №4. url: <https://cyberleninka.ru/article/n/yo-lovchilarga-chipta-sotish-jarayonini-takomillashtirish> (дата обращения: 13.05.2025).
3. Jin Qin, Xiqiong Li , Kang Yang, Guangming Xu, “Joint Optimization of Ticket Pricing Strategy and Train Stop Plan for High-Speed Railway: A Case Study”. Study. Mathematics 2022, 10, 1679. <https://doi.org/10.3390/math10101679> .
4. Й.О. Пазойского, “Организационная пригородных Железнодорожных перевозок” учеб. пособие / У.О. Пазойский и др.; под ред. У.О. Пазойского. — М.: ФГБОУ «Учебно-методический центр по образованию на железнодорожном транспорте», 2015. — 270 с. ISBN 978-5-89035-816-5.
5. O'tkir O'ktamjon O'gli Xusenov, Dilmurod Baxodirovich Butunov, Shuxrat Xamroqul O'gli Bo'riyev shahar atrof poyezdlari to'xtash punktlarining oraliq masofalarini aniqlash tartiblari // Academic research in educational sciences. 2021. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/shahar-atrof-poyezdlari-toxtash-punktlarining-oraliq-masofalarini-aniqlash-tartiblari> (дата обращения: 13.05.2025).
6. <https://uzrailpass.uz/>
7. <https://gov.uz/oz/mintrans>
8. https://railway.uz/uz/informatsionnaya_sluzhba/novosti/36355/
9. https://www.tagesschau.de/wirtschaft/verbraucher/oepnv-deutschlandticket-auslastung-fahrgastzahlen-100.html?utm_source=chatgpt.com
10. https://www.mccberlin.net/en/news/information/information-detail/article/49-euro-ticket-resulted-in-significant-modal-shift-from-road-to-rail.html?utm_source=chatgpt.com